



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MADANIYAT VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

Mahkamov Qodirjon

Namangan davlat universiteti, professor (PhD)

Annotatsiya

Maqolada global axborotlashgan davrda madaniy munosabatlari va ularning ijtimoiy – madaniy hayotga ta’siri, madaniyat tushunshasining mazmuni – mohiyati oshib berilgan. Shuningdek, madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlarga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirish emas, balki ularga rioya qilish istagini rag’batlantirishni ham o’z ishiga oladi. Madaniyatga bunday ikki yoqlama yondashuv har qanday jamiyatga xosligi tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: madaniyat, axborot, globallashuv, urf-odat, an’ana, qadriyat, o’zlikni anglash, ijtimoiy, madaniy aloqalar, ta’lim, tarbiya.

КУЛЬТУРА И УНИВЕРСАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ

Махкамов Кодиржон

Наманганский государственный университет, профессор (PhD)

Аннотация

В статье в эпоху глобальной информатизации культурные феномены и их влияние на общественно – культурную жизнь, отражены в понятии культуры. Таким образом, культура – это не просто совокупность норм и обычаев, но и совокупность норм и обычаев, которым она подчинена. В культуре такие два типа взаимоотношений называются взаимоотношениями.

Ключевые слова: культура, axborot, глобализация, обычаи, традиции, ценности, самосознание, социальные и культурные отношения, образование, воспитание.

CULTURE AND UNIVERSAL VALUES

Makhkamov Qodirjon

Namangan State University, Vice Professor (PhD)

Abstract

The article reveals the content and essence of the concept of culture in the global information age, its impact on socio-cultural life. Also, culture is not only the development of the ability to follow existing norms and customs, but also the development of the desire to follow them. What kind of society such a two-sided approach to culture is beneficial for is studied.

Keywords: culture, information, globalization, customs, traditions, values, self-awareness, social, cultural relations, education, upbringing.

Falsafiy tadqiqotlarning asosiy kategoriyalaridan biri boʻlgan “**madaniyat**” va “**millat**” tushunchalariga doir yondashuvlarni tahlil qilish yangi taraqqiyot bosqichida ham oʻz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zero, bu tushunchalar doimo davlat va jamiyatning strategik maqsadlari bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi. Mamlakatimizda hukm surayotgan doʻstlik va birdamlik muhiti — tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, islohotlar samaradorligini oshirish, Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi obroʻ-eʼtiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir. Yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari bir xalq sifatida Oʻzbekiston ravnaqi uchun birlashib, barcha soha va tarmoqlarda munosib mehnat qilmoqda,

bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqda [1; 142–145-b.].

Ammo madaniyat so'zining mazmun-mohiyatiga chuqurroq e'tibor beradigan bo'lsak, bu atama tabiat, jamiyat va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalovchi nazariyalar, g'oyalari va qarashlarga nisbatan ham qo'llanilishini anglaymiz. XX asrning 50-yillari boshida amerikalik olimlar Alfred Kreber va Klayd Klakxon o'zlarining **“Madaniyat: tushuncha va ta'riflar”** asarida madaniyatning 164 ta ta'rifi mavjudligini ko'rsatib o'tganlar. Hozirgi vaqtda esa madaniyat atamasining 400 dan ortiq ta'rifi mavjud bo'lib, jumladan, “inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi”, “moddiy va ma'naviy qadriyatlar”, “jamiyatning ma'naviy hayoti”, “insonning tashqi va ichki olami”, “axloqiy fazilatlar yig'indisi”, “ramziy ishora va belgilar” kabi mazmunlarda qo'llaniladi.

Adabiyotlar tahlili

Madaniyat — jamiyat, tabiat va insonning ijodiy mahsulini ko'rsatib beruvchi omildir. U kishilar hayotining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklarda ifodalanadi.

Madaniyat va madaniy munosabatlarning nazariy-metodologik jihatlari O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy manbasi hisoblangan **“Avesto”**da ham o'z aksini topgan. Unda insonning atrof-muhitga munosabati, ma'naviy, axloqiy va kosmologik qarashlari yoritilgan. Zardushtiylikda jamiyatning huquqiy, axloqiy va hayotiy masalalari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, mehnatsevarlik, haqiqatgo'ylik va fikrlarning sofliqi inson ma'naviy dunyosining asosiy qirralari sifatida qayd etilgan.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino: “Haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishish mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak”, deb ta'kidlaydi. U o'z asarlarida do'stlik, hamjihatlik va birodarlik kabi g'oyalarni targ'ib qiladi, kishi hayotida chin do'stlik e'tiqod sifatida ulug'lanishini ko'rsatadi. Do'stlikka ta'rif berib, u quyidagilarni yozadi: “Do'stlik insonga xos bo'lgan shunday bir xislatdirki, bunda boshqa birovga yaxshilik istaladi, bunda inson yaxshilikni, avvalo, do'stlari uchun istaydi, do'st esa yaxshi ko'ruvchidir. Do'st o'z do'stining xursandligida ham, baxtsizlik kezlarida ham qayg'u va shodligiga sherik bo'ladi” [2; 78–79-b.]. Abu Rayhon Beruniy esa milliy va diniy mahdudlikni qoralagan, uning fikricha, bunday holatlar ijtimoiy hayotga va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi [3; 29-b.].

Yusuf Xos Hojibning **“Qutadg'u bilig”** asarida inson faqat ijtimoiy va madaniy munosabatlar, boshqa odamlar bilan o'zaro aloqadorlik, ijtimoiy foydali mehnat natijasida mukammallikka erishishi ta'kidlanadi. Alloma fikricha, insonlarning axloqiy mukammalligi davlatning siyosiy mustahkamligiga va uning obro'sining oshishiga olib keladi [4; 95–96-b.]. Alisher Navoiy esa o'z asarlarida insonparvarlikni kuylaydi, tinchlikni qo'llab-quvvatlaydi va urushni qoralaydi. U butun hayoti davomida urushlarga qarshi bo'lgan, johillik, bosqinchilik va kelishmovchiliklarning salbiy oqibatlarini tushuntirgan [5; 283–287-b.]. Navoiy o'z asarlarida insonlar o'rtasidagi chin do'stlikni ulug'laydi, dushmanlik va axloqiy tubanlikni qoralab, jamiyatni do'stlikka chorlaydi.

Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlariga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirish emas, balki ularga rioya qilish istagini ham rag'batlantiradi. Madaniyatga bunday ikki tomonlama yondashuv har qanday jamiyatga xosdir. Masalan, Qadimgi Xitoyda **jen**, Hindistonda **dharma** tushunchalari shu mazmunda namoyon bo'lgan. Qadimgi Rimning so'nggi davrlarida madaniyat tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va o'rta asrlarga kelib keng tarqalgan [6]. Bizning fikrimizcha, aloqa vositalarining jadal rivojlanishi va davlatlar orasidagi munosabatlarning globallasuvi madaniyatlar dunyosining yangilanishini kuchaytirdi. Bunday sharoitda sivilizatsiya taqdiri uchun zarur bo'lgan, gumanistik g'oyalarga tayangan, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan madaniy aloqalarni kuchaytirish, hozirgi va kelajak avlod uchun zarur sharoitlarni shakllantirish muhim masala hisoblanadi.

Buyuk italyan mutafakkiri D. Viko ta'kidlashicha, "madaniyatshunoslikning muhim xususiyati inson, tarix va madaniyatning uzviy birligidir. Madaniyat tarixsiz va insonsiz rivojlanmaydi, inson esa tarix va madaniyatsiz yashamaydi. Tarix inson uchun tashqi jarayon bo'lmagan, uning zaminida inson o'zi uchun zarur bo'lgan muhitni, ijtimoiy hayotini va pirovard natijada o'zini yaratadi. Bu ikki tushuncha insoniyatni saqlab qoladi" [7; 212–214-b.]. Ijtimoiy falsafa oldida madaniy munosabatlarni, uning rivojlanish tendensiyalarini tanqidiy tahlil qilish orqali umuminsoniy munosabatlarning yangi tizimini yaratish vazifasi vujudga keladi. Madaniyatlar qadriyati milliy madaniyatlarning birlashmasi sifatida namoyon bo'ladi va u shaxs ma'naviy dunyosining yuksalishida, ijtimoiy hayot uyg'unligida, jamiyatning barqaror rivojida ko'rinadi [8; 22–23-b.]. Shu sababli professor O.A. Astafeva ta'kidlaganidek, hozirgi davrda madaniyatning innovatsion xususiyati jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi [9; 15–16-b.].

Bu madaniy munosabatlar sun'iy shakllantirilgan munosabatlar bo'lmay, dunyodagi tabiiy integratsiyalashuv jarayoni, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy birliklarni shakllantirishga yo'naltirilgan harakatlar va kommunikativ aloqalarning jadallashuvi natijasida vujudga kelgan munosabatlardir. Ular muayyan darajada insonlar oldida turgan, vaqt birligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir.

Natijalar va muhokama

Madaniyatlar xilma-xilligini anglash tufayli xalqlarning milliy qadriyatlari, urf-odatlar va shaxs xulqiga nisbatan mustaqil tushunchalar majmuasi shakllanadi. Ushbu jarayonda madaniyatlar farqliligi turli xalqlarning bir xil geografik kenglikda yashashi va iqtisodiy rivojlanish darajasi yaqin bo'lishiga qaramay, ularning o'ziga xosligini saqlab qolishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, muayyan tarixiy davrda bir-biriga qo'shni bo'lib yashagan xalqlarning ham o'zligini saqlab qolishi kuzatiladi. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, madaniy munosabatlar insoniyatning barqaror rivojlanishidagi muhim omil hisoblanadi. Bu omil tashqi ta'sirlarga moslashish, inqirozlardan chiqib ketish imkoniyatlarini yaratadi hamda pirovard natijada madaniyat insoniyat kelajagini ta'minlovchi taraqqiyot omili sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniy munosabatlarning muhim vazifalaridan yana biri mintaqaviy xalqlar madaniyati taraqqiyotiga qo'shadigan hissasidir. Ta'kidlash lozimki, bu xalqlar madaniyati ularning yaqinlashuvida, ular orasidagi do'stlik va hamkorlik aloqalarining yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni mintaqa xalqlari iqtisodiy aloqalar kengayishidagi kabi, madaniy aloqalarda ham yagona hamkorlik sari intilmoqdalar. Katta va kichik etnik madaniyatlar, turli tillar va dinlar rang-barangligi sharoitida madaniyat hudud xalqlarining o'ziga xosligini ta'kidlovchi omil, uning ichki asosini tashkil etuvchi tayanch vazifasini bajaradi. Ushbu madaniyat tarixining yangi sahifalari mavjud insoniy munosabatlarni mustahkamladi va bu jarayon, o'z navbatida, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni faollashtirdi, madaniyatlar birligini yanada kengaytirdi. Jahon madaniyatiga va uning birligiga munosabat, mintaqa xalqlari madaniy birligidagi o'xshashlik, madaniy munosabatlardagi gumanistik jarayonlarning faylasuflar tomonidan e'tirof etilishi amaliyot bilan uyg'un holda, yangi taraqqiyot davridagi madaniy munosabatlar va millatlararo aloqalarning kuchayishida o'z aksini topmoqda.

Hozirgi davrda globallashuv jarayoni, telekommunikatsiyalar va yangi axborot texnologiyalari muayyan darajada shaxsning ma'naviy dunyosiga, uning madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda [10; 12–14-b.]. Jumladan, shu davrgacha mavjud bo'lgan jahon madaniyati ko'rinishi degan tushuncha milliy madaniyatga o'z ta'sirini to'liq o'tkaza olgani yo'q. Madaniyatlarning namoyon bo'lish shakllari internet, televideniye va ommaviy axborot vositalari faoliyati tufayli jahonning turli burchaklariga juda tez yetib bormoqda. Bizningcha, madaniyat tayyor mahsulot emas, balki jarayon sifatida qabul qilinishi zarur [11; 213–215-b.].

Madaniyatlar mazmunining globallashuvga konseptual yondashuvlaridan ma'lum bo'ladiki, hozirgi davrda jahondagi madaniy jarayonlar natijasida madaniyatlarning bir-biriga ta'siri kuchayib bormoqda. Madaniyatlar orasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishi globallashuvning madaniy jarayonlar turfaligiga ta'sirini o'rganish zaruratini oldinga suradi.

Xilma-xil madaniyatlarning mavjudligi jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi va jamiyat rivojiga muhim hissa qo‘shadigan innovatsion imkoniyat mavjudligini ko‘rsatadi. Madaniy jarayonlarga bunday strategik yondashuv madaniyatlar rivojiga differensial yondashuvni, madaniyatlarning bir-biriga ijodiy hamkorligi va o‘zaro ijobiy ta‘sirini taqozo etadi.

Har xil madaniyatlar va madaniy munosabatlar jamiyatda sodir bo‘ladigan ijtimoiy-madaniy jarayonlar dinamikasidan dalolat beruvchi voqealardir. Mintaqa sivilizatsiyasiga xos bo‘lgan ijtimoiy-madaniy sohada integratsion omillar faqat ushbu hududda yashayotgan xalqlar madaniyati rivojini ta‘minlashga qaratilgan harakat emas. Ushbu jarayon bevosita mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir qiladi, shu bilan birga faqat o‘ziga xoslik xususiyatlarini targ‘ib qilish bilangina cheklanmaydi. Ko‘p qirrali jarayon jadal rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Madaniyatlararo aloqalarning hozirgi zamon sivilizatsiyasi rivojida ahamiyatiga e‘tibor qaratib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2001-yil noyabr oyida ***“Madaniyatlar turfaligi”***ga bag‘ishlangan maxsus deklaratsiya qabul qilgan [12].

Mazkur xalqaro hujjatda madaniyatlar rang-barangligi insoniyat faoliyatining muhim ijobiy natijasi sifatida ta‘kidlangan. Shu bilan birga, milliy madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tirof etish, shaxsning insoniy obro‘si va manfaatlarini himoya qilish zarurligi ilgari suriladi va ushbu hujjat Inson huquqlari deklaratsiyasi bilan bir qatarga qo‘yiladi. Turli madaniyatlar rivoji shaxsning mustaqil fikrini ifoda etishi, ommaviy axborot vositalarida turli fikrlarning mavjudligi, jamiyatdagi ko‘p tillilik, badiiy ijod, ilm-fan yutuqlari va bilim imkoniyatlaridan, shu jumladan raqamli shaklda ham to‘liq foydalana olishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Barcha madaniyatlar vakillari o‘z shaxsiy yoki jamoaviy nomidan fikr bildirish, g‘oyalarini tarqatish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Deklaratsiyada ta‘kidlanadiki, madaniyatlar har xilligi uni tanlash imkoniyatini vujudga keltiradi, har bir shaxsda mavjud bo‘lgan o‘ziga xoslik nafaqat iqtisodiy taraqqiyotni, balki intellektual, emotsional, axloqiy va ma‘naviy barkamollikni ta‘minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi davrdagi madaniy munosabatlar rivojining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, milliy madaniyat oldingidan ko‘ra yanada faol ravishda inson hayotida namoyon bo‘lmoqda. Bunday holat, o‘z navbatida, globallashtirishning salbiy oqibatlariga qarshi tura oladigan jarayon sifatida ko‘zga tashlanadi. Milliy madaniyatlar shakllanishidagi xilma-xillik, ya‘ni shaxsning bir-biridan farq qiluvchi milliy madaniyatlarga munosabati, uning rivojlanishini va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Bu holat madaniy jarayonning o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi va ijtimoiy-madaniy tajribaning amaliyotdagi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunday madaniy jarayonlarda atrof-muhit va ijtimoiy voqealar o‘z aksini topadi. Shu sababli madaniyatlardagi umumiylik ijtimoiy hayotdan olingan qadriyatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi va inson hayoti mazmuniga e‘tibor berishga, uning kelajakdagi hayotiga ijobiy ta‘sir etishga undaydi.

Milliy madaniyat rivojida har bir shaxs ongida sodir bo‘ladigan ijtimoiy mazmundagi voqealar va hozirgi davr mazmun-mohiyatiga mansub bo‘lgan tushunchalar, kechinmalar o‘z aksini topadi. Har bir milliy madaniyat uyg‘unlikning turli modellarini shakllantiradi va ularda madaniy o‘ziga xoslik namoyon bo‘ladi. Yangi taraqqiyot bosqichida zamonaviy axborot texnologiyalari ta‘siri ostida milliy madaniyatlar zaminidagi milliylik xususiyatlari va umumiylik jarayoni orasida muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Ammo o‘ziga xoslikning avvalgi shakllarini inkor etgan holda, yangi kommunikatsiyalar shaxsdagi va milliy madaniyatlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni rivojlantirish uchun yangi sharoit yaratadi. Fuqarolik jamiyatining rivoji yangi madaniyat muhitini vujudga keltirib, gumanizmga asoslangan global madaniy munosabatlarning rivojiga imkon yaratadi, shu bilan birga turli madaniyatlarning mavjudligini inkor qilmaydi. Zamonaviy kommunikatsiyalar o‘z mohiyatiga ko‘ra zarur integrativ imkoniyatga ega bo‘lib, umuminsoniy madaniy munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, millatning shakllanish jarayonlari mohiyati to‘g‘risida bir-birini to‘ldiruvchi turli konsepsiyalar mavjud bo‘lishiga qaramay, millat — urf-odat, an‘ana, qadriyat,

o'zlikni anglash hamda ijtimoiy va madaniy aloqalarni o'zida mujassam etgan yaxlit birlikdir. Jamiyat rivojlanib borar ekan, unga doir qarashlar va ta'limotlar ham zamon bilan hamnafas ravishda o'zgarib boradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, millat hudud, til, dunyoqarash, mentalitetning barqaror ko'rinishlari, ma'naviyat va milliy ongning o'zaro hamkorligida shakllangan ijtimoiy birlik sifatida qaraladi. Shu ma'noda millat milliy davlatchilik rivojini siyosiy-huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Millatga doir qarashlar turfa va o'ziga xos bo'lishi tabiiydir. Millat mavjud ekan, mazmun va mohiyati jihatidan bir-birini to'ldiruvchi ilmiy nazariyalar ham paydo bo'laveradi. Biroq nazariyalar jamiyatda qo'llanilgandagina o'z qimmatini namoyon etadi. Agar konsepsiyalar real hayotdan uzoq bo'lsa, ularning umri qisqa bo'ladi. Xalqimizning bunyodkorlik, bag'rikenglik va jamoaviylik kabi xislatlari mavjud ekan, turli konsepsiyalar asosida ham o'z fikrimizni isbotlashimiz, milliy taraqqiyotning mustahkam ma'naviy asoslarini yanada kuchaytirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Saifnazarov I., Obidov A. Dinlararo hamjihatlik — ijtimoiy barqarorlik omili. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. — B. 142–145.
2. Inoyatov S. va boshqalar. Abu Ali ibn Sino: komil inson to'g'risida. — Navoiy, 2010. — B. 78–79.
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: Fan, 1968. — B. 29.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. — Toshkent: Yulduzcha, 2017. — B. 95–96.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 3-jild. — Toshkent: Fan, 2003. — B. 283–287.
6. Madaniyat va uning paydo bo'lishi [Elektron manba]. — URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>
7. (murojaat sanasi: 04.05.2021).
8. Viko J. Millatlar umumiy tabiati haqidagi yangi fan asoslari. — Moskva: REF-book, ISA, 1994. — B. 212–214.
9. Abilov O'. Milliy g'oya: ma'naviy omillar. — Toshkent: Ma'naviyat, 1999. — B. 22–23.
10. Astafyeva O. N., Avanesova O. G. Madaniy siyosat va milliy madaniyat: zamonaviy Rossiyada strategik rivojlanish istiqbollari // Yaroslavl pedagogika xabarnomasi. — 2015. — № 5. — B. 15–16.
11. Yuldasheva F. X. O'zbekistonda globallashuv sharoitida ma'naviy yangilanish xususiyatlari: DSc avtoreferat. — Toshkent: O'zMU, 2019. — B. 12–14.
12. Danilevskiy N. Ya. Rossiya va Yevropa / tuzuvchi va izohlar muallifi Yu. A. Belov; mas'ul muharrir O. Platonov. — 2-nashr. — Moskva: Institut russkoy sivilizatsii, 2011. — B. 213–215.
13. Madaniyatlararo aloqalar va zamonaviy sivilizatsiya rivoji [Elektron manba]. — URL: <http://www.unesco.org>